

“QAYTA QURISH” YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT

Qurbanova Nozimaxon Ro’zimurod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tarix fani o‘qituvchisi

Nargiza Agzamova Gafurovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Turizm va mehmondo’slik fakulteti, 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sovet davrida paydo bo’lgan “Qayta qurish” siyosati va uning O’zbekistonga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ta’siri haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: “Qayta qurish”, sovet hukumati, M.S.Gorbachyov, O’zbekiston, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, "Oshkoraliq", paxta, I.A.Karimov, mustaqillik g’oyasi.

Аннотация: В этой статье рассматривается политика «Перестройки», возникшая в советский период, и её влияние на социальную, экономическую и политическую сферы Узбекистана.

Ключевые слова: «Перестройка», советское правительство, М.С. Горбачёв, Узбекистан, социальное, экономическое, политическое, «Гласность», хлопок, И.А. Каримов, идея независимости.

Abstract: This article highlights the policy of "Perestroika," which emerged during the Soviet era, and its social, economic, and political impact on Uzbekistan.

Keywords: "Perestroika," Soviet government, M.S. Gorbachev, Uzbekistan, social, economic, political, "Transparency", cotton, I.A. Karimov, the idea of independence.

Kirish: SSSR rahbari va KPSS etakchisi K.U. Chernenko vafotidan keyin, KPSS Markaziy Komitetining Bosh kotibi etib M.S. Gorbachyov saylandi. Tez orada u o‘zining yangi g’oyaviy prinsiplarini va yo‘nalishlari haqidagi fikrlarini 1985-yil 23-aprelda Moskvada bo‘lib o‘tgan KPSS Markaziy Komitetining Aprel plenumida bildirildi. Ushbu plenum sovet jamiyatining barcha jabhalarini chuqur isloq qilish zaruratini ta’kidladi. Iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, oshkoraliq va demokratiyani jamiyatda qaror toptirish KPSS MK Bosh kotibi M.S. Gorbachyov ilgari surgan qayta qurish siyosatining asosiy maqsadlari sifatida belgilandi. Bu siyosat 1953-1956, 1964-1965 va 1982-1983-yillardagi islohotlardan tubdan farq qilib, 1985-yilda sovet jamiyatini har tomonlama yangilash zaruratini e’tirof etdi. Qayta qurish siyosatining bosh yo‘nalishlari ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat ekanligi ta’kidlandi.

Qayta qurish yillarida O’zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat (1985–1991). 1985-yilda Sovet Ittifoqida rahbariyat almashishi ortidan “Qayta qurish” (Perestroyka) va “Oshkoraliq” (Glasnost) siyosatlari boshlanib, O’zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keldi. Ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirish, demokratik tamoyillarni mustahkamlash hamda ijtimoiy ongni yangilashga qaratilgan edi.

Siyosiy islohotlar va erkinlikka intilish: Gorbachev tomonidan amalga oshirilgan siyosiy islohotlar natijasida O’zbekiston siyosiy tizimida muayyan o‘zgarishlar yuz berdi. O’zbekiston Kommunistik

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2025

Partiyasi (OKP) rahbariyati avvalgi qat'iy markazlashgan va avtoritar boshqaruvga nisbatan islohotlarga ochiqroq bo'lib, ayrim siyosiy qarorlar qabul qilindi:

- Oshkorlik siyosati natijasida O'zbekistonda jurnalistlar va dissidentlar faollashdi, ammo bu faollik cheklangan miqyosda bo'ldi. Ushbu davrda adolat va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha fikrlar rivojlansa-da, ochiq tanqid va muhokamalar hali to'liq erkinlikka erisha olmagan edi.
- Sovet tizimidagi markazlashgan boshqaruvni mustahkamlash uchun amalga oshirilgan ayrim islohotlar, O'zbekistonda iqtisodiy boshqaruvning qisman yengillashuvi va hududiy xususiyatlarni hisobga olishga yo'l ochdi.

Iqtisodiy o'zgarishlar va qiyinchiliklar: Sovet Ittifoqidagi boshqa respublikalar singari, O'zbekiston iqtisodiyoti ham besh yillik rejalarga asoslangan holda rivojlangan. Bu rejalar Markaz tomonidan ishlab chiqilib, kommunistik partiya plenumi va s'ezdlarida tasdiqlangan va bajarilishi majburiy bo'lgan. Biroq, mahalliy sharoitlarda bu qarorlarni amalga oshirish ko'pincha imkonsiz bo'lib, ishchi kuchi va sanoatning haddan tashqari bosim ostida qolishiga sabab bo'lgan. Vazifalar bajarilmaganda javobgarlik xavfi tufayli ko'zbo'yamachilik va oshirib yozish holatlari keng tarqalgan.

- Rejalashtirishdagi kamchiliklar, iqtisodiy tizimning samarasizligi va ijtimoiy muammolarga befarqlik aholining ehtiyojlarini qondirishga to'sqinlik qilgan. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida, xususan, paxta yetishtirish sohasida jiddiy muammolar yuzaga kelgan. Paxtadan boshqa qishloq xo'jaligi tarmoqlari qisqarib ketgani natijasida, o'zbek dehqonlari faqat paxta yetishtirishga ixtisoslashib qoldi. Sanoat, transport va aloqa tarmoqlari rivojlanishning past darajalarida bo'ldi.
- Ijtimoiy soha, ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash sohalari ittifoq bo'yicha eng past ko'rsatkichlarda edi. Masalan, 1989-yilda Qashqadaryo viloyatidagi 800 maktabning 300 tasi moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi, 966 ta sinfda pol, 1048 ta sinfda ship yo'q edi, 113 ta muktabda oshxona mavjud emas, 114 ta maktab binolari esa qulash arafasida edi.
- Paxta yakkahokimligi tufayli hatto uylar atrofidagi yerlar ham paxta yetishtirishga moslashtirilgan edi. Bu holat xalqimizning qadimiy dehqonchilik va chorvachilik madaniyatining rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilgan.

Etnik va diniy masalalar: Ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik davrida SSSRda siyosiy aqidaparastlikning ta'siri yanada ortdi. Shu yillarda musulmonchilik va millatchilikning har qanday shakli yana "eskilik qoldig'i" deb qoralandi. Ayniqsa, bu holat 1980-yillarning o'talarida, Sharof Rashidov vafotidan keyin, O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi bo'lib L. Usmonxo'jaev tayinlanganidan keyin yaqqol ko'zga tashlandi. Usmonxo'jaev boshchiligidagi ma'muriyat Markazning topshiriqlarini bajarishga asosiy e'tiborni qaratdi, ammo xalqning ijtimoiy va madaniy ahvoli u uchun ahamiyatsiz bo'lib qoldi. Shu davrda ko'plab masjid va madrasalar yopilib, omborxonalarga aylantirildi. Diniy marosimlar qattiq cheklangan, jumladan, janoza o'qish, marhumlarni so'nggi yo'lga kuzatish va boshqa urf-odatlar taqiqlangan edi. Bundan tashqari, O'rta Osiyodagi qadimiy, islomgacha bo'lgan madaniy bayramlar, xususan, "Navro'z" ham ta'qib ostiga olindi.

Milliy ongning rivojlanishi va ijtimoiy harakatlar: Qayta qurish davrida milliy uyg'onish va mustaqillik intilishlari kuchaydi. Gorbachev siyosati natijasida O'zbekistonda quyidagi muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi:

- Milliy madaniyat va tilni rivojlantirish: O'zbek tilining davlat tili sifatida e'tirof etilishi va milliy madaniyatni asrashga qaratilgan sa'y-harakatlar boshlandi.

- Milliy harakatlarning rivojlanishi: 1989-yilda “Erk” va “Birlik” kabi harakatlar tashkil etildi. Bu harakatlar O‘zbekiston mustaqillik yo‘lida qo‘ygan dastlabki qadamlari sifatida tarixda muhim o‘rin tutadi. Hukumat va bu harakatlar o‘rtasida keskin qarama-qarshiliklar yuzaga keldi.
- Mustaqillik sari qadamlar: 1990-yillarga kelib, O‘zbekiston mustaqillikka intilishlari kuchayib, bu jarayon 1991-yil 31-avgust kuni mustaqillik e’lon qilinishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda, 1980-yillarning oxirida O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli sovet hukmronligi davrining tabiiy davomiyligini aks ettirdi. Sovet Ittifoqi olib borgan milliy siyosat O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga e’tiborsizlikni namoyon etdi. Ushbu siyosat markscha-leninchha ta’limotga tayanib, mustamlakachilik mafkurasi bilan sug‘orilgan va milliylikni yo‘q qilishga qaratilgan edi.

Natijada, uzoq yillar davomida O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivoji Markazga qattiq bog‘liq holda qoldi. Sanoatning bir yoqlama rivojlanishi, qishloq xo‘jaligining paxtachilikka ixtisoslashishi hamda ma’muriy-buyruqbozlik tizimi tufayli aholining moddiy sharoiti yomonlashib, qashshoqlik kuchaydi.

Faqatgina mustaqillikka erishgandan keyin, Sovet davridan qolgan ushbu salbiy oqibatlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Arxiv.uz veb-sayti Qayta qurish yillarda O‘zbekistonning ijtimiy-iqtisodiy hayoti
2. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference (Ibragimova Umida+Qahramanova Nilufar) pdf
3. Zenodo.org.records.11621099 veb-sayti Qayta qurish yillarda O‘zbekistonning ijtimiy-iqtisodiy hayoti(Bozorov.O)